

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ ДАВЛАТ
ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДЕПАРТАМЕНТИ**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ

**АЛИШЕР НАВОЙЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ВА ТАЪЛИМИЙ
КОРПУСЛАРИНИ ЯРАТИШНИНГ НАЗАРИЙ
ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ”**

**мавзусидаги
халқаро илмий-амалий конференция
материаллари
(2021 йил 7 май)**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ ДАВЛАТ
ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДЕПАРТАМЕНТИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ

АЛИШЕР НАВОЙЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ВА ТАЪЛИМИЙ
КОРПУСЛАРИНИ ЯРАТИШНИНГ НАЗАРИЙ
ҲАМДА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ”**

мавзусидаги

халқаро илмий-амалий конференция

материаллари

(2021 йил 7 май)



UO‘K: 004.8+81‘33

KBK: 81.1

Ўзбек миллий ва таълимий корпусларини яратишнинг назарий ва амалий масалалари / Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. 2021 йил 7 май. Электрон нашр / ebook. – Тошкент: ТошДУТАУ, 2021. – 330 б.

Ушбу тўпلامдан Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетида бажарилиши 2020-2021 йилларга мўлжалланган АМ-FZ-201908172 рақамли “Ўзбек тили таълимий корпусини яратиш” мавзусидаги амалий лойиҳа доирасида ташкил этилган “Ўзбек миллий ва таълимий корпусларини яратишнинг назарий ҳамда амалий масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари жой олган.

Масъул муҳаррир:

Б.Р.Менглиев, Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети профессори, филология фанлари доктори

Тақризчилар:

Ш.Х.Шаҳобиддинова, Андижон давлат университети профессори, филология фанлари доктори

Ж.Ш.Жумабаева, Ўзбекистон Миллий университети профессори, филология фанлари доктори

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Ш.М.Хамроева, Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети докторанти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Ш.К.Гулямова, Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети докторанти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)



ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТА

Тошқулов Абдуқодир Ҳамидович (Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги)
Абдурахмонов Иброҳим Юлчиевич (Инновацион ривожланиш вазирлиги)
Шерматов Шерзод Хотамович (Халқ таълими вазирлиги)
Сирожиддинов Шухрат Самариддинович (Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети)
Қирғизбоев Абдуғаффор Каримжонович (ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг Маънавият ва давлат тилини ривожлантириш масалалари департаменти)
Султонов Исажон Абдураимович (Инновацион ривожланиш вазирлиги)
Сатторов Шухрат Шавкатович (Республика таълим маркази)
Мамараимова Насиба Ядгаровна (Халқ таълими вазирлиги)
Жамолиддинова Одинахон Рустамовна (Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги)
Менглиев Бахтиёр Ражабович (Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети)
Раупова Лайло Рахимовна (Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети)
Шахабитдинова Шоҳида Ҳашимовна (Андижон давлат университети)
Абдирашидов Зайнабидин Шарабидинович (Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети)
Элов Ботир Болтаевич (Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети)
Ҳамроев Ғофир Ҳасанович (ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг Маънавият ва давлат тилини ривожлантириш масалалари департаменти)
Жўрақўзиев Нодир Имомқўзиевич (Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети)
Ҳамроева Шахло Мирдждоновна (Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети)
Абжалова Манзура Абдурешетовна (Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети)
Гулямова Шахноза Кахрамоновна (Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети)

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Менглиев Бахтиёр Ражабович
Раупова Лайло Рахимовна
Шахабитдинова Шоҳида Ҳашимовна
Ҳамроева Шахло Мирдждоновна
Абжалова Манзура Абдурешетовна
Гулямова Шахноза Кахрамоновна
Абдурахманова Нилуфар Зайнобиддин кизи



O‘ZBEK TILI KORPUSIDA ZAMONNI IFODALOVCHI GRAMMATIK SHAKLLARNI ANNOTATSIYALASH MUAMMOLARI

PROBLEMS OF ANNOTATION OF GRAMMATICAL FORMS REPRESENTING TENSE IN THE CORPUS OF THE UZBEK LANGUAGE

Xonnazarov Elyor G‘ofurovich*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili korpusida zamon shakllarini annotatsiyalash muammolari, grammatik shaklning kontekstga bog‘liq holda boshqa zamonni ifodalash holatlari, shuningdek, zamon kategoriyasini korpusda annotatsiyalash masalalarini monografik tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyoj haqida ma‘lumot beriladi.

Annotation. This article provides information on the problems of annotation of time forms in the corpus of the Uzbek language, on the cases of expressing grammatical forms with other tenses depending on the context, as well as on the need for a monographic research of the issues of annotation of time categories in the corpus.

Kalit so‘zlar: korpus, zamon shakllari, lingvistik ta‘minot, annotatsiyalash, kontekst, o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon

Keywords: corps, tense forms, linguistic supply, annotation, context, past tense, present tense, future tense

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jahon hamjamiyati kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib borishi tilshunoslik bilan bog‘liq masalalarni ham raqamlashtirishni ijtimoiy ehtiyojga aylantirdi. Tilshunos olimlar oldida uzoq davr mobaynida jamlangan lingvistik axborotni lingvistik ta‘minotga aylantirish vazifasi yuzaga keldi. Bu ehtiyoj natijasi o‘laroq jahonda ko‘pchilik xalqlar o‘zining milliy til korpusiga ega bo‘ldi va undan faol foydalanilmoqda. “Xususan, o‘tgan asrning 60-yillarida mazkur jarayon jadallashdi, XXI asr boshlarida o‘zida millionlab so‘zlarni aks ettiruvchi yuzlab til korpuslari paydo bo‘ldi” [Xamroyeva, 2018: 3]. O‘z navbatida, bu tildan amaliy foydalanish samaradorligi oshishiga, tilni tadqiq etish va uni o‘rganishda yangi imkoniyatlar yuzaga kelishiga, boshqacha aytganda, kompyuter texnologiyalarining lingvistik bilan integratsiyalashuviga sabab bo‘ldi.

O‘zbek tili korpusini yaratish borasida ham qator tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, takomillashtirish bosqichida bo‘lgan hozirgacha yaratilgan korpuslar tilimizning boy imkoniyatlari va o‘ziga xosliklarini aks ettirishi, til birliklarini tahlil qila olishi nuqtayi nazaridan mukammal emas. Bu, avvalo, korpus tuzish masalasiga so‘nggi yillardagina jiddiy e‘tibor qaratilganligi bilan, qolaversa, mavjud lingvistik axborotni lingvistik ta‘minotga aylantirish borasidagi muammolar bilan xarakterlanadi. Avtomatik tahlil jarayoni sistemaviylikka asoslanib, muayyan til birligining qo‘llanilishidagi o‘ziga xoslik holatlari bunda muammo manbayiga aylanadi. Shuning uchun ham tilimizdagi muayyan turkum, kategoriya doirasidagi lingvistik axborotni korpusda mukammal aks ettirish yuzasidan monografik plandagi tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj bor. Namuna sifatida olinadigan til korpuslarida shunday amaliyot borligini kuzatish mumkin. Masalan, ingliz tili materiallari doirasida zamon konseptining korpusdagi tadqiqi Georgiana Marsic tomonidan amalga oshirilgan. U gaplardagi vaqt belgisi tabiiy tilni qayta ishlash (NLP-Natural Language Processing) jarayonida qanday ifodalanishini o‘rganadi. [Marsic, 2011: 5] Biroq o‘zbek tili korpusida zamon kategoriyasini annotatsiyalash monografik tarzda o‘rganilmagan.

Ma‘lumki, zamon shakllarini annotatsiyalash korpusning morfologik analizatori uchun muhim hisoblanadi. Bunda dastlabki ish tilimizdagi mavjud zamonni ifodalovchi grammatik shakllarni tizimlashtirib olishdan boshlanadi. Fe‘lning zamon kategoriyasi yuzasidan bir nechta nomzodlik dissertatsiyalari yozilgan. Bundan tashqari, turli darslik va qo‘llanmalarda fe‘l so‘z turkumi doirasida ko‘pchilik tilshunoslar tomonidan ham zamonlar tasnifi amalga oshirilgan. A. G‘ulomov, A.Hojjiyev, Sh.Shukurov kabi olimlarning mazkur mavzudagi tadqiqotlari alohida e‘tiborga molik. Biroq ayrim grammatik shakllarning zamon kategoriyasiga mansub yoki mansub emasligi, agar mansub bo‘lsa, u

* Tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, xonnazarov90@mail.ru



qaysi zamonga oidligi yuzasidan bir to'xtamga kelinmagan. Bu haqida Azim Hojiyev shunday yozadi: "Turli darslik va qo'llanmalar, ayrim monografiyalar, shuningdek qiyosiy plandagi ishlardan tashqari o'zbek tilidagi fe'l zamonlari temasi bo'yicha to'rtta kandidatlik dissertatsiyasi yoqlandi. Biroq har bir zamon formasining o'ziga xos xususiyati haqidagina emas, hatto, hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'lning qaysi zamoni qanday formalarga egaligi haqida ham shu vaqtga qadar bir xil fikrga kelingan emas" [Hojiyev, 1973: 128] Tilshunos olimning mazkur mulohazalari bugun ham o'z kuchida turibdi. Hamon muayyan bir grammatik shaklning qaysi zamoni ifoda etishi yuzasidan turlicha fikrlar manbalarda uchrab turadi. Bu zamon ifodalovchi shakllarni o'zbek tili korpusi uchun annotatsiyalashdan oldin ularni muayyan tizimga solishga ham ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Zero, bir qo'shimchaning qaysi zamonga oidligi tahlilida inson omili ikkilanar ekan, kompyuter dasturidan ham to'g'ri tahlil kutib bo'lmaydi. Korpus linvistik ta'minotni inson tomonidan kiritilgan texnologiyalar asosida voqelantirib beradi.

Manbalarda o'zbek tilida zamoni ifodalovchi grammatik shakllar sifatida quyidagilar berilgan:

1. O'tgan zamoni ifodalovchi grammatik shakllar: *-di, -gan, -b (-ib)*
2. Hozirgi zamoni ifodalovchi grammatik shakllar: *-yap, -moqda, -yotir (-ayotir), -yotib (-ayotib)*
3. Kelasi zamoni ifodalovchi grammatik shakllar: *-a (-y), -r (-ar), -moqchi*.

Yuqoridagi shakllarning *edi, ekan, emish* to'liqsiz fe'llari bilan qo'llanishidagi zamonga xoslanish ham borki, u korpusda ifodalashda kategoriya tabiatini murakkablashtiradi: *-gan+edi, -gan+ekan, -gan+emish, -b (-ib)+edi, -b (-ib)+emish, -moqda+edi, moqda+ekan, -moqda+emish, -yotir (-ayotir)+edi, -yotir (-ayotir)+ekan, -yotir (-ayotir)+emish, -yotib (-ayotib)+edi, -yotib (-ayotib)+ekan, -yotib (-ayotib)+emish, -r (-ar)+edi, -r (-ar)+ekan, -r (-ar)+emish, -moqchi+edi, -moqchi+ekan, -moqchi+emish*. Sifatdosh shakli sifatida qaraladigan *-yotgan (-ayotgan), -ydigan (-adigan)* qo'shimchalari ham to'liqsiz fe'llar bilan birgalikda *-yotgan (-ayotgan)+edi, -yotgan (-ayotgan)+ekan, -yotgan (-ayotgan)+emish, -ydigan (-adigan)+edi, -ydigan (-adigan)+ekan, -ydigan (-adigan)+emish* kabi murakkab shakllarni hosil qiladiki, ularning har bir qo'llanilish holatini korpusda annotatsiyalab chiqish zarur. Bunga qo'shimcha ravishda mazkur shakllarni annotatsiyalash jarayonida hisobga olinishi kerak bo'lgan bir qator jihatlari ham mavjud:

1. Ushbu qo'shimchalardan ayrimlarining bo'lishsizlik shakli bilan munosabatini, inkor shakli ta'sirida zamon qo'shimchasi tarkibida yuz beradigan fonetik o'zgarishlarni e'tiborga olish. Masalan: *-r, -ar* shaklini olgan fe'lning inkor shakli *-mas* ko'rinishida bo'lishi yoki *-moqda, -moqchi* kabi shakllarning *-ma* bo'lishsizlik shaklini qabul qilmasligi, ba'zi hollarda *emas* to'liqsiz fe'lning ishlatilishi.

2. Qo'shimchalarning to'liqsiz fe'l bilan birikkan shakllarining tovush tushishi fonetik hodisasi ta'sirida qo'shib yozilish holatlarining ham tilimizda faol qo'llanilishi. Masalan: *-gan edi=-gandi, -gan emish=-ganmish, -ar ekan=-arkan*.

3. *yot, tur, o'tir, yur* kabi ayrim fe'llarning zamon shakllarini qabul qilishi va zamon ma'nosini ifodalashidagi o'ziga xosliklarini inobatga olish, xususan, bu fe'llarning harakatni va holatni anglatadigan o'rinlari, ularning ko'makchi fe'l vazifasida kelganda harakatning davomiyligini anglatishini e'tiborga olish. Masalan: U allaqachon uyga *ketibdi* (o'tgan zamon) – U bekor, uyda *o'tiribdi* (hozirgi zamon) (Har ikkala fe'lning morfemik tarkibi bir xil, ammo asosning ma'noviy xususiyati zamoni voqelantirishga ta'sir ko'rsatyapti)

4. Sifatdosh shakli sifatida ham mavjud bo'lgan *-gan, -r (-ar), -yotgan (-ayotgan), -ydigan (adigan)* kabi qo'shimchalarning valentlik imkoniyatlari doirasida ularning sof fe'l tarkibida zamon ifodalash va fe'l asosidan sifatdosh hosil qilish (sifatdoshda ham zamon ma'nosi bor) holatlarini farqlash. Masalan: *kelayotgan ekan* shaklidagi *-ayotgan* affiksi sifatdosh hosil qilganligi yoki sof fe'l tarkibida zamon ifodalanganligi bo'yicha manbalarda turli xil fikrlar berilgan.

5. *-a (-y)* shaklining ba'zi hollarda har uchala zamonga tegishli holatni ifoda etishi. Manbalarda hozirgi-kelasi zamon, umumzamon, doimiy zamon kabi terminlar bilan ifodalangan bu hodisani to'rtinchi alohida zamon sifatida yoki kelasi zamon o'rnidagi uchinchi zamon deb qarash bo'yicha bir to'xtamga kelinmagan.

6. Muayyan zamonga tegishli grammatik shaklning kontekst bilan bog'liq ravishda boshqa zamoni ifodalab kelish holatlari. Quyida birgina o'tgan zamonning *-di* shakli kontekstga aloqadorlikda ifodalaydigan ma'nolarni tahlil qilib ko'ramiz.

-di shaklining o'tgan zamoni ifoda etishi yuzasidan barcha tilshunoslar yakdil fikr bildiradilar. Lekin turli nutqiy qurshovda uning boshqa zamonlarni ham voqelantira olishi, qolaversa, shaxs-son qo'shimchasi bo'lgan *-di* shakli bilan omonimlik munosabati ham borki, bu qo'shimchani korpusda



annotatsiyalash jarayonida bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki bu holatlarning aksariyati kontekst bilan bog'likda yuzaga chiqsa, ayrimlari grammatik shakl qo'shilayotgan asosning leksik ma'nosiga daxldorlikda yuz beradi.

-*di* shaklining o'tgan zamonni ifoda etishi eng faol qo'llanish holati bo'lib, masalan, *bordim* so'zshakli bor+PAST+DEF+PI+SG tarzida dasturlanishi mumkin.

Xuddi shu nuqtayi nazardan nutqimizda tez-tez uchrab turuvchi “*Bo'pti, men ketdim*” tarzidagi gapda qo'llangan *ketdim* so'zini ham dastur o'tgan zamondagi fe'l sifatida xato tahlil qilib ketaveradi. Vaholanki, ketish harakati nutq momentidan keyin yuz beradi va tahlilda uni kelasi zamondagi fe'l sifatida ko'rsatish to'g'ri bo'ladi. Misoldagi *ketdim* so'zshaklining aynan kelasi zamonning -a qo'shimchasi bilan ifodalanadigan *ketamanga* nisbatan ma'noviy farqlanishi ham mavjud bo'lib, *ketdim* kelasi zamonda yuz beradigan harakatning nutq momentiga eng yaqin ekanligini ifoda etadi. Bu qo'llanish nutqimizda faol bo'lib quyidagi misollarda ham -*di* shakli shu holatni ifodalagan:

– *Xayr, o'rtoqlar, men ketdim.*

– *Diqqat bilan tinglanglar, men boshladim.*

Ushbu gaplarda bildirish, ogohlantirish ma'nolari ifodalangan.

Qani, bolalar, yozdik.

Tez-tez, chopdik.

Bu gaplarda esa taklif, da'vat ma'nolari ifodalangan. E'tibor berilsa, bu holat asosan I shaxs birlik va ko'plikda kuzatiladi. Bunda I shaxs birlikda bildirish ma'nosi, I shaxs ko'plikda taklif, undash ma'nolari anglashiladi. Ushbu berilgan misollarning barchasida -*di* shakli o'rinda kelasi zamonning -a, -y shakllarini qo'llash mumkin.

Bundan tashqari *nima* so'roq olmoshi *demoq, qilmoq* fe'llari bilan birga qo'llanganda ba'zan unga qo'shilgan -*di* qo'shimchasi ham kelasi zamon ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi.

– *Unda bu ishlarni bugunog amalga oshirishimiz kerak, nima deding(iz)?*

– *Kursdoshlarim barcha gaplardan xabar topibdi, endi nima qildim?*

-*di* shaklining bu gaplarda ifodalagan kelasi zamon ma'nosi I va II shaxs doirasida qo'llanilib, muayyan vaziyatga munosabat bildirish tinglovchi e'tiboriga havola etiladi. *Nima deding, nima dedingiz* kabi shakllarning kelasi zamon ma'nosini berishi faqat II shaxs birlik va ko'plikda, *nima qildim, nima qildik, nima qilding, nima qildingiz* kabi birikmalar esa I va II shaxs birlik va ko'plikda qo'llaniladi.

Yuqoridagi holatlardan tashqari -*di* qo'shimchasi jonli so'zlashuv uslubida nutqiy vaziyatga bog'liq ravishda *faraz* ma'nosi bilan quyidagi misollarda ham kelasi zamonni ifodalaydi:

– *Xo'p, ertaga o'qishni tugatding, keyin nima bo'ladi?*

– *Menga yo'lni qayta tushuntir, katta yo'l bo'ylab to'g'ri boraman, Ahmad akaning do'koni keladi, do'kondan chappa burildim, undan so'ng qayerga yuraman?*

Ushbu gaplardagi -*di* shakli -a kelasi zamon qo'shimchasi bilan erkin almasha oladi. Bu holatda -*di* qo'shimchasi kelasi zamonda faraz qilinayotgan harakat-holatning yuz berishi aniqligi, amalga oshishiga ishonch qo'shimcha ma'nolarini ifodalaydi. Bu ma'noda u uchala shaxsda ham birlik va ko'plikda qo'llana oladi.

Umuman olganda, biz bu o'rinda birgina qo'shimchani kontekstga bog'liqlikda o'z ma'nosidan chekinib boshqa zamonni ifodalashi haqida to'xtaldik. Vaholanki, korpus matnlarida bu kabi boshqa zamon qo'shimchalari ham xilma-xil ma'nolarni voqelantirgan bo'ladi. Ularni to'g'ri tahlil qilish uchun esa korpus tizimli lingvistik ta'minotga ehtiyoj sezadi. Qolaversa, yuqorida sanalgan zamon ifodalovchi grammatik shakllarni korpusda ifodalash bilan bog'liq qator muammolarning ham yechimini ishlab chiqish darkor. Bu esa zamon kategoriyasining korpusda annotatsiyalanishini monografik tarzda tadqiq etishga zarurat borligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. G'ulomov A. Fe'l. –Toshkent: Fan, 1954.
2. Hojiyev A. Fe'l. – Toshkent: Fan, 1973.
3. Xamroyeva Sh. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Buxoro, 2018.
4. Mengliev B., Shahabitdinova Sh., Khamroeva Sh., Gulyamova Sh., Botirova A. The morphological analysis and synthesis of word forms in the linguistic analyzer // *Linguistica Antverpiensia*, 2021, 2021(1), стр. 703-712.



5. Хамроева Ш. Муаллифлик корпусининг муштарак ва ўзига хос жиҳатлари // Сўз санъати халқаро журнали. – №2 (2020) – Б. 80-87. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-2>
6. Marsic G. Temporal processing of news: annotation of temporal expressions, verbal events and temporal relations: A thesis submitted in partial fulfilment of the requirements of the University of Wolverhampton for the degree of Doctor of Philosophy, 2011.



МУНДАРИЖА

Сўз боши	4
Кутлов	5
А.Қирғизбоев Корпус – миллий тил хазинаси	5
И.Султонов Миллий корпус – ўзбек тилини ривожлантиришга инновацион ёндашув	6
Н.Маҳмараимова Миллий тил корпуси – замонавий таълим таянчи	7

ЯЛПИ ЙИГИЛИШ МАЪРУЗАЛАРИ

Е.Адалı Derlem	9
В.П.Захаров, М.С.Коган Использование корпусов в изучении и преподавании языка в россии: достижения, проблемы, перспективы	16
Т.Хўжаўғли Ўзбек тилининг миллий корпусини яратишда транскрипсия ва имло масаласи	21
Ғ.Ақик Ўзбек тилини чет тили сифатида ўқитиш усуллари	22
Г.И.Эргашева, А.Н.Ахмедова Corpus-based translation studies	25
Б.Менглиев Ўзбек тилининг миллий корпуси”ни яратиш: ютуқлар, муаммолар ва вазифалар.....	28
С.Каримов Ўзбек тили миллий корпусини яратиш муаммолари ҳақида	30
Л.Раупова, Н.Зарипбоева Таълимий корпус: татбиқий, амалий электрон ресурс воситаси сифатида	31

ХИСОБОТ ВА ТАҚДИМОТЛАР

Ш.Хамроева, Ў.Холиёров Ўзбек тилининг феъл шакллари луғати” ўзбек тили корпуслари лингвистик таъминоти сифатида	36
М.А.Абжалова Ўзбек тили миллий корпусида синонимайзер ёхуд синонимизаторни яратиш масаласи	39
Б.Б.Элов, Х.А.Ахмедова, М.А.Абжалова Омоним сўзларни фарқлаш усуллари.....	42

І ШЎЪБА: ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ МИЛЛИЙ КОРПУСИ: НАТИЖАЛАР, МУАММОЛАР, ВАЗИФАЛАР

А.Б.Қаршиев, С.А.Каримов, М.С.Турсунов Ўзбек тили корпуси: токенайзер, лемматайзер, разметкалаш дастурларини тавсифлаш ва улардан фойдаланиш	47
З.Т.Холмонова Корпусларнинг лингвистик тадқиқот материали сифатидаги аҳамияти	52
М.К.Абузалова Корпусда тиббий бирликларни теглаш	58
Б.М.Бахриддинова, Г.Б.Баходирова Ўзбекистонда миллий тил ренессанси ва луғатчилик тараққиёти	61
М.Т.Абдурахмонова, М.М.Райимжонова, С.Н.Муротов Ўзбек миллий адабиёти муаллифлик корпуси архитектураси	64
А.Гатиатуллин, Н.Абдурахмонова “Туркий морфема” портали ўзбек тили электрон корпуси учун лингвистик аннотациялаш тизими сифатида	68
Х.Мадатов, Д.Хужамов, Б.Болтаев Турк WORDNETига асосланган ўзбек WORDNETини қуриш	72
М. Қ.Бағила, А.Т.Аширова Қазақ тіліндегі бағалауыштық лексика: зерттелуі мен динамикасы	78
Л.Х.Нигматова Ўзбек миллий корпусида халқ мақолларининг ўрни	86
Г.Тоирова Корпус тузишининг айрим қоидалари ҳақида	90
И.Х.Исломов Миллий тил корпусида ўзбек тили географик терминларини жойлаштириш	



масаласи	93
И.М.Раббимов, С.М.Умирова, Б.Ф.Холмухамедов Ўзбек тили корпусида сўз туркумларини теглаш масаласи	97
А.Эшмуминов Корпусда разметка ва унинг хусусиятлари	101
Ш.К.Гулямова Корпус лингвистикасида омонимияни филтрлаш масаласи (от ва феъл ҳамда сифат ва феъл туркуми доирасида)	105
Д.Б.Ахмедова, М.Б.Ахмедова Semantic markup system and modelling	110
М.Б.Менглиева Параллел корпус учун ҳаракат тарзи маъноларининг лингвистик базаси	113
К.Х.Мусулмонова Миллий корпус яратишнинг кримонолингвистика тараққиётидаги роли ва истиқболлари	117
А.А.Раҳманова, М.И.Акрамджанова Параллел матнлар корпусининг маданий муносабатларни ёритишдаги ўрни	121

II ШУЪБА: ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ТАЪЛИМИЙ КОРПУСИНИ ЯРАТИШ МАСАЛАЛАРИ

Б.Менглиев, Ш.Хамроева, Ҳ.Холиёров Ўзбек тили таълимий корпуси: тузилиши, таркиби, имкониятлари	125
Б.Менглиев, Ҳ.Холиёров, Ш.Хамроева Ўзбек тили таълимий корпусининг кидирув тизими хусусиятлари	130
Ш.Шаҳабитдинова, Ш.Хамроева, Д.Элова Таълимий корпус – электрон таълимий ресурсининг бир кўриниши	137
А.Т.Қалиева Қазак тили сабақтарында ақпараттық технологияларды тиімді қолдану	141
Э.Ш.Назирова, Ш.Б.Абидова, Н.Ф.Жамолов Икки тилли электрон таржимада сўзларни таҳлил қилиш алгоритмини ишлаб чиқиш	144
Ш.А.Абдисаломова Она тили таълими учун терминлар корпусини яратиш масалалари	148
М.П.Ражаров Корпус – матнларни қайта ишлашнинг замонавий воситаси сифатида	151

III ШУЪБА: ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ФОРМАЛ ГРАММАТИКАСИНИ ЯРАТИШ МУАММОЛАРИ

М.К.Ҳакимова Ўзбек тилида вақт маъносини кодлаш масаласи	156
Н.Ш.Ахмедова Ўзбек тили корпусини яратишда ассотсиатив бирликларнинг ўрни	161
Т.Жумаев Ўзбек тили морфологик анализатори учун тарихий лексикология муаммоси	164
М.Э.Умурзоқова Матн таркибланишида сегмент қурилмаларининг ўрни	168
О.Бозоров Лексик бирлик ва унинг маъно модели	172
К.Т.Жумаева Ўзбек тили лексикологик анализатори учун тарихий асар тили муаммоси	177
Э.Ғ.Хонназаров Ўзбек тили корпусида замонни ифодаловчи грамматик шаклларни аннотациялаш муаммолари	182
А.Е.Қуадықова, Ғылыми Жетекшісі: Б.Қ.Мўратбек Дидар амантай шығармалары: жаңашыл ізденіс, филологиялық таным және модустық үлгі	186
М.Ғ.Наврўзова Ўзбек халқ мақолларида тиббий бирликларининг қўлланилишини корпус воситасида тадқиқ этиш	192
Д.Д.Рузиқулов Ўзбек тилининг формал грамматикасида жамликнинг категория сифатида қабул қилиниши	196

IV ШУЪБА: ТИЛ ТАЪЛИМИДА КОРПУСДАН ФОЙДАЛАНИШ

Ш.Ж.Юсупова Ўзбек тили таълимий корпусини яратишда матн билан ишлаш ҳамда унда психоллингвистиканинг ўрни	200
.....



К.М.Мавлонова, Н.С.Хакимова Она тили таълимида миллий матнлар корпусидан фойдаланиш зарурати	205
Д.Юлдашева, Д.Юсупова Она тили таълимида ўзбек тилининг миллий корпусига эҳтиёж сезилмоқда	209
Ғ. Ҳ.Ҳамроев Электрон ўқув луғатлар ва миллий тил корпуси: муаммо, эҳтиёж ва таклифлар	212
Н.Э.Абдуллаева Паремнологик градуонимиянинг лингвопрагматик жиҳатларини ўрганишда тил корпусларидан фойдаланиш	215
Ф.С.Бахтиярова Таълим сифатини оширишда компютердан фойдаланиш ва ўрта махсус таълим тизимида доир айрим мулоҳазалар.....	219
Р.А.Каримов Параллел корпуснинг лингвистик, хорижий тил лингводидактикасидаги аҳамияти ва таржимонлик соҳасидаги имкониятлари	223
Ш.С.Абдираимов Баҳолаш ва миллий корпус	229
З. Ҳ.Раҳматова, Ш.И.Набиева Ўзбек тилининг таълимий корпуси базасини такомиллаштиришда мактабгача ёшдаги болалар луғатларининг ўрни	232
М.Ш.Сайдалиева Ўзбек тилининг мултимедия корпусини яратиш тамойиллари	236

V ШУЎБА: ТАБИИЙ ТИЛГА АВТОМАТИК ИШЛОВ БЕРИШ МУАММОЛАРИ

М.С.Шарипов, У.И.Салаев Ўзбек тили стемминг масаласини ечишда префиксларни қирқиш алгоритмини яратиш	240
Әмірғали Жанар Орынбасаркызы қазіргі түрік тілі мен қазақ тіліне ортақ сөздердің лексика-семантикалық жүйесі	244
И.А.Азимова Афазияда лингвистик ва экстралингвистик омилларнинг ўрни	250
А.Ботирова Лингвистик луғатлар яратишга доир янгича ёндашув	254
Д.С.Турдалиева Мақоллар ва маталларнинг мувофиқловчи функциялари	257
А.Ақбулатов, З.М.Мўтиев, Шўйіншалиева «служак» энгімесінің көркемдік табиғаты, типологиялық талдау	261
Ш.К.Гулямова, Ш.Ш.Холова Семантик анализатор борасидаги изланишлар хусусида	265
Н.И.Ғайбуллаева Тиббий лингвистик бирликларнинг электрон луғатини яратиш	270
Э.Ш.Назирова, Ш.Б.Абидова, Н.Ф.Жамолов Ўзбек тилидан қорақалпоқ тилига таржиманинг функционал модули	275
Б.Р.Тожибоев Ўзбек тили ассоциатив луғатини тузишда қўлланилган тажриба методи	279
М.А.Холова Ўзбек миллий корпусида халқ шевалари ривожланиш асосларига бир назар ..	282
А.Муртазаев Содда гаплардаги айнанлик, ўхшашлик ҳамда фарқлилик категорияларининг сунъий интеллектдаги ўрни	288
И.М.Раббимов, С.С.Кобилов, З.М.Қурдошев A problem of part-of-speech tagging in the uzbek language corpus	292
Р.Каримов Ўзбек-инглиз параллел корпусида халқ мақолларининг ифодаланиши	296
Ў.Х.Абдуллаева Ўзбек тилидаги электрон ахборот матнлари корпусини яратишдаги ўзига хосликлар	299
А.А.Раҳманова Ўзбек тилидаги омонимлар билан боғлиқ дастурий муаммоларни бартараф этиш усуллари	303
Д.Тўраева Шахсий ёзишма тушунчаси ва экспертиза усуллари	309
О.Ж.Хидиров Ўзбек тилида эргашган қўшма гапларни синтактик теглаш ва моделлаштириш	313
О.Д.Насирдинова Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик асосини даражалашда ўзбек	



тили миллий корпусининг ўрни	317
Д.М.Сапарова Дунё тилшунослигида тил даражаларининг ўрганилиши (ўзбек тили мисолида)	321
Ш.М.Хайдарова Лексик базани шакллантириш методикаси	325
С.Ю.Алланазарова Ўзбек тилидаги матнларни хиссий жиҳатдан таҳлил қилиш	329
М.Солиев Тил корпуслари семантик тегларини яратишда семантик изоҳ бериш муаммоларига доир	332
З.Ю.Хусайнова Электрон луғат амалий лексикография ривожланишининг янги босқичи сифатида	335
Д.С.Абдурайимова Лингвистик экспертизада шахсий ёзишмаларнинг ўрганилиши ва унинг аҳамияти	339